TALABALARINING MATBUOT BILAN ISHLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Shukrulloyeva Malika Baxshulloyevna
Buxoro davlat texnika universiteti matbuot kotibi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarning matbuot bilan ishlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Loyiha asosidagi ta'lim orqali talabalar axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va uni ommaviy axborot vositalari tili orqali ifodalash ko'nikmalariga ega bo'lishi ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, texnik talabalar uchun mediakompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi ochib berilgan.*


Kalit so'zlar: *loyiha asosidagi ta'lim, texnik talabalar, matbuot, mediakompetensiya, axborot savodxonligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimlarining keskin ortishi barcha sohalarda, jumladan, texnik yo'nalishlarda ham mutaxassis tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda texnik mutaxassis nafaqat o'z sohasiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, axborotni tahlil qilish, uni keng jamoatchilikka tushunarli va aniq tarzda yetkazish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur.

Texnik oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy o'qitish usullari ko'proq nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining matbuot bilan ishlash qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu sababli ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga, real muammolar ustida ishlashga va axborot manbalari bilan samarali muloqot qilishga yo'naltiradi. Aynan shu jihatlari orqali mazkur texnologiya texnik talabalarining matbuot bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning) – bu ta'lim jarayonini aniq maqsadga yo'naltirilgan loyiha faoliyati asosida tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyadir. Ushbu texnologiya talabalarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborot izlash va uni amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatadi.



1-rasm. Talabalarning muloqot faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar

Texnik talabalarining matbuot bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida loyiha asosidagi ta'lim quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- *turli ommaviy axborot vositalarida chop etilgan texnik va ilmiy-ommabop maqolalarni tahlil qilish* – talabalar tomonidan texnik mazmundagi matnlarning tuzilishi, mazmuni, dolzarbligi va ishonchliligini baholash orqali tanqidiy fikrlash hamda axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidir.
- *muayyan texnik muammo yuzasidan axborot materiallari tayyorlash* – real texnik muammolar asosida axborotni izlash, saralash va uni ommaviy axborot vositalari talablariga mos holda taqdim etish faoliyatidir.
- *loyiha doirasida maqola, press-reliz, axborot byulleteni yozish* – talabalarining yozma nutqi, kasbiy muloqoti va matbuot janrlari bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.
- *elektron va bosma matbuot uchun mediama'lumotlar ishlab chiqish* – turli axborot platformalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik axborotni matn va vizual vositalar orqali yetkazish jarayonidir.

Bunday loyiha faoliyati talabalarni axborot manbalarini tanlash, ularning ishonchliligini baholash va muhim jihatlarini ajratib ko'rsatishga o'rgatadi. Natijada talabalarida tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va axborot madaniyati shakllanadi.

Natija va muhokama. Mazkur konseptual grafik chizma tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning o'zaro bog'liqligi va izchilligini aks ettiradi. Model nazariy asosdan boshlab diagnostika, loyiha-konstruktiv faoliyat, amaliy ijro va monitoring

bosqichlarining uzviy integratsiyasiga tayangan. Har bir metod keyingi bosqichning ilmiy-pedagogik poydevorini yaratib, yakunda media loyihalar asosida talabalarning ijtimoiy-kasbiy kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu model tadqiqotning tizimliligi, mantiqiyligi va natijaviy yo‘naltirilganligini ta’minlaydi.

Shuningdek, loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalari talabalar o‘rtasida jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruhda bajariladigan mediaproektlar jarayonida talabalar o‘z fikrini asoslab berish, muloqot qilish va muhokama madaniyatiga amal qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida matbuot va jamoatchilik bilan samarali aloqalar o‘rnatishiga xizmat qiladi.

Texnik talabalar uchun loyiha asosidagi matbuot faoliyati nafaqat qo‘shimcha bilim manbai, balki kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi ham hisoblanadi. Chunki bugungi kunda texnik mutaxassislar o‘z ishlanmalari va loyihalarini ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qila olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnik talabalarining matbuot bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, talabalarni mustaqil, ijodiy va mas’uliyatli faoliyatga yo‘naltiradi.

Loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalari orqali texnik talabalar axborotni tahlil qilish, uni ommaviy axborot vositalari talablari asosida qayta ishlash va taqdim etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning mediakompetensiyasi va kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, texnik oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, xususan, matbuot bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000. – pp. 98-104.
2. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. // The Clearing House. – 2010. – Vol. 83, No. 2. – B. 39–43.
3. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. San Francisco: Jossey-Bass, 2009. – pp.121-125.
4. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003. – P. 245.
5. Polat E.S. Loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalari va ularni amaliyotda qo‘llash. Moskva: Akademiya, 2015. – pp. 45-49.
6. Tojiyev M., Rahimov A. Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 125-129 b.